O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

«INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO’JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI»

MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

SAMARQAND

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish tendensiyalari mavzusidagi

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANI

MATERALLARI TO‘PLAMI

25-26 sentyabr 2026 yil

Samarqand – 2026

№	Mualliflar va maqola nomi	Bet
1	**X.B. Yunusov.** INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH: YUTUQLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	9
2	**S.R. Egamberdiyeva.** XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA MUNOSABATLARI VA INVESTITSION AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH	11
3	**B.A. Xasanov, A.N. Maxmudov, S.Y. Atamurodov.** KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH VA RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH FOYDA KO‘RSATKICHLARINI 2029-YILGACHA PROGNOZI	20
4	**Z.N. Kurbanov.** O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISH MASALALARI	23
5	**N. Berdimurat, A. Berdimurat.** ОРГАНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОГО УЧЕТА И ОПТИМИЗАЦИЯ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ	28
6	**A.I. Alikulov, U.R. Rakhimova**. QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA BIOLOGIK AKTIVLAR AUDITINI RISKLARGA YO‘NALTIRILGAN HOLDA TASHKIL ETISH	34
7	**A.I. Alikulov, S.S. Sayfiyev, I.Sh. Karimov.** CHORVACHILIK KORXONALARI VA AGROKLASTERLARDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI BHXS (IAS) 41 “QISHLOQ XO‘JALIGI” STANDARTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	40
8	**B.A. Xasanov, A.N. Maxmudov, S.Y. Atamurodov.** XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARINING IQTISODIY MOHIYATI, ULARNI TASNIFLASH VA BAHOLASHNING ZARURATI	47
9	**O.R. Fayziyev.** BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDA AYLANMA KAPITALDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI IQTISODIY TAHLIL QILISH VA BARQAROR RIVOJLANISHNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	50
10	**B.Y. Menglikulov.** CHORVACHILIK BIOLOGIK AKTIVLARI HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI	57
11	**K.D. Mirzayev.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AGROSERVISNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	63

12	**R.B. Amaniyazov.** QISHLOQ AHOLISI DAROMADLARINI KO‘PAYTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI	68
13	H.O. Akbarov. MINTAQAVIY BOG‘DORCHILIKDA RESURS VA XARAJATLAR TARKIBINI OPTIMALLASHTIRISH (SAMARQAND VILOYATI TUMANLARI MISOLIDA)	74
14	**H.E. Azimova.** SANOAT SOHASIDA INVESTITSION RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	79
15	**M.Sh. Mardonov.** QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING TEXNOLOGIK VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI HAMDA ULARNING XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA METODOLOGIYASIGA TA’SIRI	86
16	**J.I. Raxmatov.** BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA INVESTITSIYALAR HAMDA JOZIBADOR INVESTITSION MUHITNING O‘RNI VA AHAMIYATI	89
17	**N.A. Rajabov.** SAMARQAND VILOYATIDA MAISHIY XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA OID TAVSIYALAR	96
18	**M.I. Saparov.** MAMLAKATIMIZDA AHOLI KAMBAG‘ALLIK DARAJASINING TAHLILI VA KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY IMKONIYATLARI	99
19	**Sh.B. Jurakulov.** O‘ZBEKISTONDA SAVDO VA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARI TARAQQIYOTINING ILMIY ASOSLARI VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOS RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	102
20	**S.X. Eshanqulov**. O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOG‘INING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	108
21	**O.A. Abdurasulov,** F.E. Mahmudova. INNOVATSION AGROTEXNIK TADBIRLAR (XOMTOK VA BARG SONINI BOSHQARISH) ASOSIDA MAYIZBOP UZUMCHILIKDA BARQAROR HOSILDORLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI	114
22	**H.A. Ishturdiev.** ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	117
23	K. Izatillaeva, U.T. Eshmurodov. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ЗАТРАТ БИОЛОГИЧЕСКИХ АКТИВОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	121
24	**U.R. Raximova,** D.H. Vahobov, P.Z. Mardonova, Sh.A. Djuraqulov. AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY YO‘NALISHLARI	128

25	**O.R. Razikov.** O‘ZBEKISTON KIMYO SANOATI KORXONALARI DIVERSIFIKATSIYALASHUVI ASOSLARI	133
26	**U.R. Raximova,** T.R. Qodirberganova, F.F. Xazratqulov, M.X. Qadamboyev. QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH	137
27	**N. Mamatkulov, M. Ochilova.** LIMON MEVASINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI HAQIDA BA’ZI TUZUKLAR	140
28	**R.T. Qudratov, A.X. Sodiqov.** KICHIK BIZNESNI EKSPORTGA OLIB CHIQISH: AMALIY STRATEGIYALAR VA HAYOTIY TAJRIBALAR	143
29	**D.F. Ruziyeva, S. Abdunazarova.** FERMER XO‘JALIKLARIDA SOTISH JARAYONLARI HISOBI VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH	147
30	**B.G. Tleumuratov.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR	154
31	**N.A. Berdiyev.** XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA BIZNES-JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	159
32	**Sh.X. Yuldashev, S.S. Nematilloyev.** G‘ALLA YETISHTIRISHDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASHNING HOZIRGI HOLATI	165
33	**N.A. Berdiyev.** RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	171
34	**M.Sh. Nazarova, R. Berdikulov, O. Nematullaev, R. Xasanov.** YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA ISHSIZLARGA YANGI ISH O‘RINLARINI YARATISH	177
35	**G.M. Shadieva.** ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ИНВЕСТИЦИЙ, ИННОВАЦИЙ И ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	181
36	M.I. Saparov. KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARISHIGA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TA’SIRINING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	185
37	**D.B. Abduganieva, A.I. Alikulov.** SUT CHORVACHILIGIDA MAHSULOT TANNARXINI OMILLI VA MARJINAL TAHLIL QILISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	189
38	**X.A. Ishturdiev.** ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA TA’MINOT JARAYONI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	195
39	**M.T. Ochilova.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	200

40	**Z.S. Kazakova, Y.Y. Xotamova, S.K. Avalbaeva, M.A. Axrorova.** ПИЩЕВЫЕ ОТХОДЫ И СТРАТЕГИИ БОРЬБЫ С НИМИ	214
41	**U.R. Raximova, M.J. Jumaniyazova, F.I. Xoliqberdiyev, O.B. Nafasov.** AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR BO‘YICHA ICHKI NAZORAT VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH	221
42	**Z.M. To‘xtayev, S.G‘. Omonov, J.A. Abdusalomov.** KORXONALARDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARI TANNARXINI IAS 2 STANDARTI BO‘YICHA SHAKLLANTIRISH VA UNING AUDITORLIK TAHLILI	225
43	D.X. Azzamova. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ASOSIY VOSITALARNI TAN OLISH, ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA BAHOLASH VA AMORTIZATSIYA USULLARI: XALQARO VA O‘ZBEKISTON YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI	229
44	**X. Axmedov, S. Karimov, M. Raxmonova, G.B. Narziyeva.** O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA UYG‘UNLASHTIRISH SHAROITIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	232
45	**R.S. Makasheva, A. Berdimurat, S. Azizova, M. Akimova.** СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БИЗНЕСА	237
46	**G.M. Shadieva.** ИНВЕСТИЦИИ, ИННОВАЦИИ И РЕБРЕНДИНГ КАК ФАКТОРЫ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА	242
47	**G.Ch. Roziyeva.** SAMARQAND VILOYATI MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘IDA KLASTER TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI	246
48	**Z.N. Ishniyazov.** PAXTA YETISHTIRISHDA INNOVATSION AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI	254
49	**G.B. Narziyeva, S. Baxriddinov, A. Jumayev.** O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	257
50	**Z.S. Kazakova, J.R. Yaxshiliqov, A.A. Napasov.** O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISHI VA MILLIY IQTISODIY ISLOHOTLAR: IMKONIYATLAR, XATARLAR VA STRATEGIK MOSLASHUV	262
51	**D.F. Ruziyeva, S.D. Tursunov, S.S. Tog‘aymurodov, M.O‘. Eshqulov.** QISHLOQ XO‘JALIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI	267

52	**M.B. Baxtiyorov, I. Salamov.** FAOL TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINING ASOSLARI	274
53	**N. Berdimurat, A. Saparbay, Q. Қырықбай.** УЧЕТ И ОПТИМИЗАЦИЯ ТРАНСПОРТНЫХ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	279
54	**S.A. Baxtiyarova, S.A. Sultonboeva.** СИСТЕМА НАЛОГОВ И СБОРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ И ВЕКТОР РАЗВИТИЯ	286
55	**X. Urdushev, P.A. Rabbimova.** AKVAKULTURA: TABIIY-IQLIM SHAROITLAR, BALIQ YETISHTIRISH USULLARI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI	289
56	**A. Kuralenko, U. Eshmurodov.** БИОЛОГИЧЕСКИЕ АКТИВЫ КАК СПЕЦИФИЧЕСКИЙ ОБЪЕКТ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА	293
57	**Zh. Tuyakbaeva, Kh. Tazhenova, Sh. Yuldashev.** СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В МАЛОМ И СРЕДНЕМ БИЗНЕСЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	298

KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARISHIGA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TA’SIRINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Saparov Murod Irgashovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi. saparovmurod11@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasining kambag‘allikka ta’sirini tizimli baholash va uning samaradorligini oshirish maqsadida tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlarni kompleks ravishda qo‘llash zarurkigiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, kambag‘allik, iqtisodiy mexanizm, soha, samaradorlik, mexanizm, rag‘batlantirish, boshqaruv, infratuzilma, malakali kadr.

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость систематической оценки влияния сектора услуг на уровень бедности в нашей стране и комплексного применения организационно-экономических механизмов для повышения его эффективности.

Ключевые слова: предоставление услуг, бедность, экономический механизм, сектор, эффективность, механизм, стимулы, управление, инфраструктура, квалифицированный персонал.

Abstract. This article examines the need for a systematic assessment of the service sector’s impact on poverty levels in our country, as well as the comprehensive application of organizational and economic mechanisms to enhance its effectiveness.

Keywords: service provision, poverty, economic mechanism, sector, efficiency, mechanism, incentives, management, infrastructure, qualified personnel.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish borasida sezilarli natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, ushbu jarayon turli davrlarda daromadlar taqsimotining o‘zgarishi bilan birga kechgan. Xususan, 2023-yilda aholi daromadlarining o‘sishi barcha qatlamlarda bir xil bo‘lmaganligi sababli yuqori va quyi daromad guruhlari o‘rtasidagi tafovut kengaygan. Natijada daromadlar tengsizligini ifodalovchi Jini koeffitsiyenti oshgan. Biroq 2024-yilda daromadlar o‘sishining yanada inklyuziv tus olishi, ayniqsa qishloq joylarda kam ta'minlangan aholi daromadlarining nisbatan yuqori sur'atlarda oshishi kambag‘allik darajasining yanada tez qisqarishiga xizmat qilgan.

Adabiyotlar tahlili

Jon Keyns (1883–1946) o‘zining “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” (1936) asarida kambag‘allik muammosiga klassik maktab vakillaridan butunlay boshqacha - makroiqtisodiy nuqtai nazardan yondashdi va bu bilan iqtisodiy fanda inqilob yasadi. Keyns klassik iqtisodiy maktabning bozor o‘z-o‘zini tartibga soladi degan qarashini rad etib, davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi

zarurligini asosladi. Uning fikricha, kambag‘allikning asosiy sababi — samarali talabning yetishmasligidir, bu esa ishsizlik va ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi. Kambag‘allikni qisqartirish uchun davlat byudjet-soliq siyosati orqali soliqlarni kamaytirishi va davlat xarajatlarini oshirishi, pul-kredit siyosati orqali foiz stavkalarini pasaytirib investitsiyalarni rag‘batlantirishi va ijtimoiy dasturlar orqali aholining eng zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashi kerak. Keyns ta’limotining eng muhim xizmati shundaki, u kambag‘allikka qarshi kurashda davlatning faol rolini nazariy jihatdan asoslab berdi va bu g‘oyalar 1930-yillardagi Buyuk Depressiya davrida o‘z amaliy tasdig‘ini topdi. Keynsdan keyingi davrda kambag‘allik tadqiqotlari yangi bosqichga ko‘tarildi va bu muammo endi nafaqat makroiqtisodiy, balki mikroiqtisodiy va ijtimoiy jihatlardan ham o‘rganila boshlandi. Bu yo‘nalishdagi eng muhim yutuq Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan va kambag‘allik tushunchasini tubdan o‘zgartirgan imkoniyatlar yondashuvidir[1].

Iqtisodchi professor A.Vahobovning fikriga ko‘ra, “Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ijtimoiy siyosat” nomli asarida “kambag‘allik muammosi” bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga keladigan ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Shuningdek iqtisodiy islohotlar davrida ayrim aholi qatlamlari daromadlari kamayishi yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lib qolishi mumkin. Shu sababli davlat tomonidan samarali ijtimoiy siyosat yuritilishi muhim hisoblanadi”[2]. Olim o‘z asarida kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, nafaqalar va ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish orqali kambag‘allikni kamaytirish mumkinligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy adolat o‘rtasida muvozanat bo‘lishi zarurligini qayd etadi. Agar iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda aholi farovonligini oshirishga ham e’tibor qaratilsa, kambag‘allik darajasi sezilarli darajada kamayadi.

Respublikamizning mazkur sohada bir qator tadqiqotlar olib borgan yetakchi olimlaridan biri professor B. Xodiyev “Iqtisodiyot nazariyasi”[3] nomli asarida kambag‘allik muammosini iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. B.Xodiyevning ta’kidlashicha, iqtisodiy o‘sish mamlakatdagi kambag‘allik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar ishlab chiqarish hajmi ortsa, yangi ish o‘rinlari yaratilsa va tadbirkorlik rivojlansa, aholi daromadlari oshadi. Natijada kambag‘allik darajasi kamayadi. Olim o‘z asarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Chunki aynan shu soha ko‘plab ish o‘rinlarini yaratadi va aholining o‘z daromad manbalariga ega bo‘lishiga yordam beradi.

---

[1] Keynes, J. M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan.
[2] Vahobov, A. V. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ijtimoiy siyosat. Toshkent -2001.
[3] Xodiyev, B. Y., & Shodmonov, Sh. Sh. (2017). *Iqtisodiyot nazariyasi* (Darslik). Toshkent: Barkamol fayz-media

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini mahalla tizimiga tayangan holda xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish hamda kambagʻallikni qisqartirishning nazariy va amaliy jihatlarini oʻrganishga qaratilgan tizimli yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, statistik tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda joriy yil “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilingani munosabati bilan aholi bandligini ta’minlash, kambagʻallikni qisqartirish, mahallalar infratuzilmasi va ijtimoiy muhitini yaxshilash boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirildi. Bu borada yil yakuniga qadar 1 million aholini doimiy ish bilan ta’minlash, 181 ming oilani kambagʻallikdan chiqarish, kambagʻallikdan xoli mahallalar sonini 2,5 barobar oshirib, 3,5 mingtaga yetkazish, ishsizlik va kambagʻallik darajasini 4,5 foizgacha tushirish maqsad qilingan. Yil boshida infratuzilma, aholi turmush darajasi, biznes faollik va moliyaviy imkoniyatlari cheklangan 37 ta “ogʻir” tuman hamda 915 ta “ogʻir” mahalla bilan ishlash boʻyicha yangi tizim yaratilgan edi. Buning uchun barcha zarur mablagʻlar ajratildi. Xususan, respublika budjetidan “ogʻir” tuman va mahallalarda infratuzilmani yaxshilash uchun 12 trillion soʻm yoʻnaltirildi. Bunga qoʻshimcha ravishda har bir shunday tumanga 50 milliard soʻmdan, har bir mahallaga 2 milliard soʻmdan mablagʻ berildi. Viloyat hokimliklari tomonidan ham mazkur 37 ta tumanning har biriga 10 milliard soʻmdan, 915 ta mahallaning har biriga esa 1 milliard soʻmdan mablagʻ ajratildi. Natijada tuman hokimliklari va mahalliy kengashlar “ogʻir” tuman va mahallalar uchun qoʻshimcha yana 4 trillion soʻm mablagʻga ega boʻldi[4].

Respublika Davlat statistika qoʻmitasi ma’lumotlariga koʻra, Oʻzbekistonda kambagʻallik darajasi 2021-yildagi 17,0 foizdan 2025-yilda 5,8 foizgacha, Samarqand viloyatida esa 18,2 foizdan 6,1 foizgacha kamaygan. Natijada toʻrt yil davomida respublika boʻyicha kambagʻallik 11,2 foiz punktga, Samarqand viloyatida 12,1 foiz punktga qisqargan. Nisbiy hisobda kamayish respublikada qariyb 65,9 foizni, Samarqand viloyatida 66,5 foizni tashkil etgan. Kambagʻallik darajasi uy xoʻjaliklari tanlanma kuzatuvlari asosida aholi daromadlarini minimal iste’mol xarajatlari miqdori bilan solishtirish orqali aniqlanadi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, kambagʻallikni qisqartirishda mehnat faoliyatidan olinadigan daromadlarning oshishi, yangi ish oʻrinlarining yaratilishi, aholi bandligining ta'minlanishi, shuningdek, ijtimoiy himoya mexanizmlarining takomillashtirilishi muhim omillar hisoblanadi. Xususan, ish haqlarining oʻsishi,

[4] https://president.uz/oz/lists/view/9338


aholi bandligining ortishi hamda davlat tomonidan amalga oshirilgan manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari kambag‘allik darajasining izchil pasayishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatgan. Shu bois, 2021–2025-yillar davomida kambag‘allik va u bilan bog‘liq asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamonaviy iqtisodiyotda aholining turmush darajasini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda xizmat ko‘rsatish sohasi alohida o‘rin tutadi. Chunki mazkur soha nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki aholini ish bilan ta’minlash, daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, xizmat ko‘rsatish sohasining kambag‘allikka ta’sirini iqtisodiy jihatdan baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, xizmat ko‘rsatish sohasi mehnat talabchan tarmoq hisoblanib, turli malakaga ega bo‘lgan aholi qatlamlari uchun ish o‘rinlari yaratadi. Ayniqsa, kam ta’minlangan aholi uchun ushbu sohada ishlash imkoniyatlari keng. Masalan, savdo, umumiy ovqatlanish, transport, ta’mirlash va maishiy xizmatlar kabi yo‘nalishlarda ish boshlash uchun katta sarmoya talab etilmaydi. Bu esa aholining o‘z-o‘zini band qilish imkoniyatlarini oshiradi va natijada kambag‘allik darajasi pasayadi. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sohasi aholi daromadlarini diversifikasiya qilish imkonini beradi. Ayniqsa, qishloq joylarda aholi asosan qishloq xo‘jaligiga bog‘liq bo‘lib qolgan. Xizmatlar sohasining rivojlanishi esa qo‘shimcha daromad manbalarini yaratib, iqtisodiy xavflarni kamaytiradi. Natijada aholi moliyaviy barqarorlikka erishadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasining kambag‘allikka ta’sirini baholashning iqtisodiy zaruriyati shundaki, bu orqali davlat iqtisodiy siyosatini to‘g‘ri yo‘naltirish imkoniyati yaratiladi. Qaysi xizmat turlari ko‘proq samara berayotgani aniqlansa, investisiyalar va davlat qo‘llab-quvvatlovi aynan shu sohalarga yo‘naltiriladi. Bu esa resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, bunday baholash ijtimoiy adolatni ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki tahlil natijasida qaysi hududlarda xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi rivojlanmagani aniqlanadi. Davlat ushbu hududlarga alohida e’tibor qaratib, ularda yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish choralarini ko‘radi. Xizmat ko‘rsatish sohasining ahamiyati yana shundaki, u kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiyotda raqobat muhitini kuchaytiradi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Tadbirkorlikning rivojlanishi orqali aholining iqtisodiy faolligi ortib, kambag‘allik darajasi izchil ravishda kamayadi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasi infratuzilmaning rivojlanishiga turtki beradi. Turizm, transport va axborot-kommunikasiya xizmatlarining kengayishi hududlarning investision jozibadorligini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida yangi ish o‘rinlari va daromad manbalarini yaratadi. Xizmat ko‘rsatish sohasining

kambag‘allikka ta’sirini tizimli baholash va uning samaradorligini oshirish maqsadida tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlarni kompleks ravishda qo‘llash zarur. Mazkur tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning mazmuni va ularning o‘zaro bog‘liqligi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasini kambag‘allikka ta’sirini tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari

1-rasmda xizmat ko‘rsatish sohasining kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ikki asosiy yo‘nalish – tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar orqali ifodalangan. Modelga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish faqat iqtisodiy rag‘batlantirish bilan cheklanib qolmay, balki samarali institutsional boshqaruv, infratuzilma, malakali kadrlar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimlarini uyg‘unlashtirish orqali kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Modelning tashkiliy yo‘nalishi xizmat ko‘rsatish sohasida samarali institutsional muhitni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Bunda xizmat ko‘rsatish faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, soha infratuzilmasini rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirishga yo‘naltirilgan malakali kadrlarni tayyorlash hamda mahallalarda servis loyihalarini kengaytirish orqali aholi daromadlarini oshirish nazarda tutiladi. Ushbu chora-tadbirlar xizmat ko‘rsatish tizimining hududlar bo‘yicha muvozanatli rivojlanishini ta’minlash, xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va aholining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Белозерова С. Минимум для выживания//Трудовые отношения. 2003. №8. Бедность: альтернативные подходы к определению и измерению. Московский Центр Карнеги. М., 1998. Бобков В.Н. Дифференциация благосостояния//Экономист. 2005.61.
2. Бондаренко Л. Измерение сельской бедности (методология и опыт). Экономика и управление.- №10- 2009.- с. 15-23.
3. Бурлакова Е.В. Анализ феномена бедности и ее сущность в современной России // Работник социальной службы. 2000. № 1.
4. Вавилина Н.Д. Бедность в России как социальная проблема. Новосибирск, 2000. Варвус С.А. «Профиль» современной бедности. - :Вестник Таганрогского института управления и экономики.- 2010 г.- с.45-56.
5. Mirzaev, K. J. (2014). Diversification agroservice to Uzbekistan. Economics and entrepreneurship,(1-2), 130-132.
6. Қ.Ж.Мирзаев, М.И.Сапаров. Хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланиши қишлоқ аҳолисининг турмуш шароитининг яхшиланишини таъминлайди. *Ilg‘or Iqtisodiyot Va Pedagogik Texnologiyalar*, *3*(2), 416-422. https://sci-p.uz/index.php/aept/article/view/4139
7. Q.Dj.Mirzayev, M.I.Saparov. Kambag‘allikni qisqartirishda xizmatlar sohasining o‘rni. Vol. 3 No. 1 (2025): “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali, 3(1). https://www.yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/ journal/index.php/GED/ article/view/4285. 319-322 b. https://doi.org/10.5281/zenodo.14777889